



ILMIY MATN VA OG'ZAKI MULOQOTDA SHAXS IFODALANISHINING LINGVISTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Qodirova Zebo Gulboyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, o'qituvchi
+998993795450

qodirovazebo5450@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371437>

Annotatsiya. Mazkur maqolada og'zaki va yozma nutq shakllarining lingvistik xususiyatlari va kommunikativ vazifalari tizimli ravishda o'rganilgan. Maqola doirasida diskurs tushunchasi keng ko'lamda tahlil qilinib, uning lingvistik, sotsiomadaniy va pragmatik kontekstlardagi ahamiyati aniqlangan. Og'zaki nutqning o'ziga xos jihatlari sifatida rejalashtirilmaganligi va kontekstga bog'liqligi qayd etilgan bo'lsa, yozma nutqda tuzilish va izchillik aspektlari kengroq tahlil qilingan. Tadqiqotda og'zaki va yozma diskurslarning o'zaro taqqoslanishi orqali ularning kommunikativ maqsad va vazifalaridagi farqlar aniqlangan. Shuningdek, og'zaki nutqqa nisbatan mavjud bo'lgan stereotiplar va ularning ilmiy asoslari tahlil qilingan. Maqolada og'zaki va yozma diskurs bir-birini to'ldiruvchi, lekin turli xususiyatlarga ega kommunikativ vositalar sifatida qaraladi va tilshunoslikda ularni kompleks o'rganish zarurati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: nutqning lingvistik xususiyatlari, kommunikativ vazifa, nutq kontekstining roli, lingvistik tahlil, nutq xususiyatlari

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs nafaqat matn shakli, balki nutqiy janr sifatida ham kengroq o'rganilmoqda. Diskursning janr sifatidagi tabiati haqida bir qator manbalarda uning quyidagi belgilariga urg'u beriladi: *tipik tuzilishga ega bo'lishi, ma'lum lisoniy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xoslik, aniq adresatga yo'naltirilganligi, kommunikativ maqsadning mavjudligi, axborot yetkazish qobiliyati, shuningdek, etiket me'yorlariga amal qilish zarurati.* Ushbu komponentlar diskursni boshqa nutqiy ifoda shakllaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardandir. Diskursning yuqoridagi belgilari uni an'anaviy matndan farqlovchi muhim mezonlar sifatida qaraladi. Ayniqsa, diskursda tilshunoslar kompleks kommunikativ hodisa sifatida ijtimoiy, psixologik va pragmatik omillarni e'tiborga olishadi. Bu esa diskursni statik matnga nisbatan dinamik, jarayondagi, kontekstga bog'liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. So'nggi yillarda olib borilgan maxsus tadqiqotlar natijasida diskursning ijtimoiy tabiati asosida ko'plab yangi turlar ajratib ko'rsatilgan. Jumladan, *publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs* kabi tushunchalar shakllangan.

Bu turli diskurslar o'zlarining til qurilishi, uslubiy vositalari, auditoriyasi va kommunikativ maqsadlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Diskursning bu darajada ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lishi uning faqat tilshunoslik emas, balki ijtimoiy fanlar – sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganilishiga sabab bo'lmoqda. Talqin va yondashuvlar xilma-xilligi esa diskursning turli fanlararo (interdisciplinary) hodisa ekanligini isbotlaydi. Diskurs, shuningdek, ifodalanish shakliga ko'ra, ikki asosiy guruhga ajratiladi: *og'zaki diskurs* va *yoza diskurs*. Ushbu ikki shakl o'rtasidagi asosiy tafovutlar ularning yaratilish mexanizmi, vositalari va vazifalari bilan belgilanadi. *Og'zaki diskurs* real vaqt rejimida amalga oshadigan, bevosita muloqotga asoslangan shakl bo'lib, u ko'pincha takrorlash, qisqartirish, ikkilanma iboralar,

emotsional intonatsiyalar kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu nutqiy elementlar so'zlovchining o'z fikrini aniq ifodalashi, tinglovchining esa uni to'g'ri tushunishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Masalan, og'zaki diskursda takrorlash birgina grammatik vosita sifatida emas, balki semantik kuchaytiruvchi, diqqatni jalb etuvchi, yoki tushunmovchiliklarni oldini oluvchi kommunikativ vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, siyosiy diskursda bu holat yaqqol kuzatiladi, siyosatchilar muayyan g'oyani targ'ib qilishda uni takroriy ifoda etish orqali auditoriya e'tiborini markazlashtirishga harakat qilishadi.

Og'zaki diskursda intonatsiya ham alohida rol o'ynaydi. U muloqotdagi emotsional fonni, baho berishni, ohangni aniqlashga yordam beradi. Intonatsiyaning ma'noni aniqlashtirishdagi roli siyosiy, diniy va publitsistik nutqlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Aksincha, yozma diskursda esa mazmun ifodasi grammatika, sintaksis, uslubiy vositalar va kompozitsion tuzilma orqali yetkaziladi. Yozma shaklda tilshunoslar ko'proq qat'iylik, izchillik va tuzilmaviy puxtalikni talab qiladi, chunki u real vaqtda muloqotni ta'minlamaydi.

Shu bilan birga, diskursni o'rganishda har bir turga xos janr xususiyatlari, ya'ni odatdagi struktura, uslub, kommunikativ vazifa va auditoriyaga mo'ljallanganligi alohida e'tibor bilan tahlil qilinadi. Masalan, ilmiy diskursda rasmiylik, dalillilik va neytrallik muhim bo'lsa, badiiy diskursda obrazlilik, subyektivlik va estetik ifoda ustuvor hisoblanadi.

Og'zaki va yozma nutq shakllari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. G.Beattie o'z tadqiqotida ushbu tafovutga alohida e'tibor qaratadi va shunday yozadi: *"Spontan (tayyorlanmagan) nutq yozma matndan farqlanadi. Unda ko'plab xatolar, juda qisqa gaplar bo'ladi, butun ifoda esa ikkilanmalar va sukunatlar bilan to'lib-toshgan. Bu xususiyatlar og'zaki nutqning tabiiy oqimidan kelib chiqadi. Nutqni real vaqt rejimida shakllantirish insondan nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki funksional jihatdan ham ma'no anglatuvchi gaplarni yaratishni talab qiladi. Shu sababli og'zaki nutqda takrorlash, tuzatish, pauzalar, to'xtalishlar va so'zlar ustida o'ylash jarayoni tez-tez uchrab turadi"*¹. Bu fikr diskurs tahlilining asosiy tamoyillaridan biri – haqiqiy, kontekstda qo'llangan nutqni tahlil qilish zaruratini tasdiqlaydi. Diskurs tahlilchilari insonlar o'zaro muloqot qilayotgan real holatlarni, noaniq, chalkash va ijtimoiy jihatdan boy kontekstdagi nutqni o'rganadilar. Bu ularni formal (funktional emas) grammatikachilardan farqlaydi, chunki formal yondashuvlar ko'pincha rejalashtirilgan, sun'iy misollar bilan ishlashga moyildir. Ammo og'zaki diskurs tahliliga oid ko'plab tadqiqotlar: M.Halliday², S.Eggins, D.Slade³, M.Mak Carty⁴, shuni ko'rsatadiki, og'zaki ingliz tili o'ziga xos, lekin izchil ichki tuzilishga ega. Ko'pincha bu tuzilma yozma tilning grammatik va semantik xususiyatlariga o'xshash bo'lsa-da, asosiy farq ifoda vositalari va muloqotning amalga oshish kontekstida namoyon bo'ladi. Masalan, M.Halliday og'zaki tilda funksional grammatika asosida shakllanadigan kontekstga bog'liq muloqot turlarini ta'kidlaydi. S.Eggins va D.Slade suhbatdagi interpersonal munosabatlar, mavzularning shakllanishi va ijtimoiy rollarning tildagi aksini batafsil tahlil qiladi. M.Mak Karty esa og'zaki muloqotda ko'p takrorlanadigan,

¹ Beattie G. Talk: An analysis of speech and non-verbal behaviour in conversation. — Milton Keynes: Open University Press, 1983. — P 33.

² Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. — London: Edward Arnold, 1985. — 388 p.

³ Eggins S., Slade D. Analysing Casual Conversation. — London: Cassell, 1997. — 344 p.

⁴ McCarthy M. Spoken Language and Applied Linguistics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 220 p.

qisman grammatika chegarasidan chetga chiqadigan, biroq semantik jihatdan barqaror bo'lgan strukturalarni ko'rsatadi.

Shunday qilib, og'zaki nutq beqaror, xatolarga boy va fragmentar deb qaralishdan ko'ra, o'zining aniq mantiqiy va ijtimoiy asoslangan tuzilishiga ega bo'lgan tilda amalga oshadigan maxsus kommunikativ hodisa sifatida qaralishi kerak.

Og'zaki nutq ko'pincha yozma nutqdek mukammal bo'lmagan, tartibsiz, me'yorlarsiz deb qaraladi. Bu qarash, asosan, og'zaki nutq namunalarning yozuvga ko'chirilgan shaklida ko'p sonli pauzalar, takrorlar, noto'g'ri boshlanishlar va o'zgartirishlarning mavjudligi bilan bog'liq. Mashhur tilshunos M.Halliday bu boradagi stereotipni tanqid qilib, og'zaki tilning bunday tarzda "shaklsiz" deb talqin qilinishi aslida yozuvga ko'chirish jarayoni natijasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, og'zaki nutq yozuvda aks ettirilganida, u tartibsiz va noaniq ko'rinadi, biroq bu og'zaki nutqning o'ziga xos tabiati bilan emas, balki yozuvning o'ziga xos cheklovlari bilan bog'liqdir⁵. M.Halliday ta'kidlaganidek, og'zaki nutqda kuzatiladigan pauzalar, so'zlarning takrorlanishi yoki iboralarning yangidan boshlanishi, tilning tartibsizligi emas, balki muloqotning tabiiy oqimidir. Yozma nutqda ham xuddi shunday holatlar, ya'ni yozuvchining o'z fikrlarini bir necha bor o'zgartirib, qayta yozishi, chizishlar va tuzatishlar orqali fikrni shakllantirishi kuzatiladi. Ya'ni, yozuvchi yaratgan dastlabki qo'lyozma ham mukammal emas, balki tahrir va qayta ishlov talab qilinadi. Bu holat yozma nutqning ham mukammal, tugallangan shakli birdaniga vujudga kelmasligini, balki mehnat jarayonida shakllanishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, og'zaki til "shaklsiz" emas, balki o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan mustaqil til shaklidir. Uning o'ziga xos grammatikasi, pragmatik vositalari va muloqotdagi funksional roli mavjud. Tilshunoslikda bu yondashuv og'zaki va yozma nutqni teng asosda tadqiq qilish, har ikkisinining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligini taqozo etadi.

Tilshunos M.Halliday og'zaki nutqqa nisbatan mavjud bo'lgan ayrim stereotiplarga qarshi chiqib, bu til shaklining yuzaki "kamchiliklari" pauzalar, takrorlar, to'liq bo'lmagan iboralar, tuzilishdagi nomuvofiqliklar va nutqdagi tutilishlar, aslida, og'zaki tilning moslashuvchanligi va dinamikligining bir qismi ekanligini ta'kidlaydi⁶. Uning fikricha, og'zaki nutqning bu kabi xususiyatlari uni beqaror yoki grammatik jihatdan sust deb emas, balki muloqotga xizmat qiladigan amaliy va kontekstga moslashgan tizim deb baholash lozim. M.Halliday nazariyasiga ko'ra, og'zaki tilning grammatik tuzilmasi yozma tildan farqlansa-da, bu farq sifat yoki mukammallik darajasidagi tafovut emas, balki kommunikativ vazifalarga bog'liq tarzda yuzaga kelgan strukturaviy tafovutdir. Og'zaki nutq bevosita va real vaqt rejimida yuz beradigan muloqot vositasi sifatida, ko'pincha darhol javob qaytarishni, eshituvchining reaksiyasini hisobga olishni va tezkor moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu sababli, u ko'proq kontekstual vositalarga, intonatsiyaga, mimika va jestlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bunday yondashuv og'zaki tilni faqat yozma tildan "kamchilikli" shakl sifatida emas, balki o'zining mantiqiy, grammatik va pragmatik tizimiga ega bo'lgan mustaqil til shakli sifatida ko'rishga yordam beradi. Aksariyat holatlarda, og'zaki til nutq ishtirokchilari

⁵ Halliday M. A. K. Spoken and Written Language. – Oxford: Oxford University Press, 1985. – 123 p.


⁶ Halliday M. A. K. Spoken and Written Language. – Oxford: Oxford University Press, 1985. – P 77.

o'rtasida muloqotni soddalashtirish, tushunishni tezlashtirish va ijtimoiy o'zaro ta'sirni ta'minlash uchun yanada samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslikda norasmiy nutq (ya'ni og'zaki muloqot) va rasmiy yozuv (yozma nutq) o'rtasidagi farqlarni anglashning samarali usullaridan biri – bu turli matn shakllarini ma'lum o'lchovlar bo'yicha bir spektr bo'ylab joylashtirishdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, til shakllari bir qator belgilar asosida: rasmiylik darajasi, mavhumlik darajasi, rejalashtirilganlik, kontekstga bog'liqlik va kommunikatsiya vositasi (og'zaki yoki yozma) kabi mezonlar bilan farqlanadi.

Spektrning bir uchida – eng norasmiy, bevosita va kontekstga kuchli darajada bog'liq bo'lgan og'zaki muloqot shakllari turadi. Bular, masalan, do'stlar o'rtasidagi kundalik suhbatlar, oilaviy suhbatlar yoki telefonda qilinadigan norasmiy muloqotlar bo'lishi mumkin. Ushbu muloqotlar odatda qisqa, hissiy jihatdan boy, takrorlarga va pauzalarga boy, shuningdek, ishoralar, intonatsiya va tana harakati kabi paralingvistik vositalar orqali to'ldiriladi.

Spektrning ikkinchi uchida esa eng rasmiy, mavhum va kontekstdan nisbatan mustaqil bo'lgan yozma matnlar joylashadi. Bunga ilmiy maqolalar, qonun hujjatlari, rasmiy bayonotlar, akademik dissertatsiyalar kiradi. Bu kabi matnlar oldindan rejalashtirilgan, murakkab sintaktik tuzilmalarga ega, leksik jihatdan boy va aniq bo'lishi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuv, nutq va yozuvni mutlaq qarama-qarshi kategoriyalar sifatida emas, balki turli xususiyatlarga ega bo'lgan matnlar spektrining ikki qutbi sifatida tushunish imkonini beradi. Ko'pchilik matn shakllari esa ushbu spektrda oraliq pozitsiyani egallaydi, masalan, radio intervyulari, yarim rasmiy elektron xatlar, blog postlari yoki og'zaki leksiyalar yozma ilmiy uslubga yaqinlashgan, ammo to'liq ilmiy emas. Shunday qilib, og'zaki nutq va yozma rasmiy nutq o'rtasidagi farqni anglash uchun bu ikki shaklni qarama-qarshi emas, balki uzluksiz shakldagi stilistik va funksional spektr sifatida talqin qilish, tilshunoslik va matn tahlili sohasida ancha foydali yondashuvdir. Quyidagi rasmda, yuqoridagi keltirilgan turli darajadagi matnlar joylashuvi o'z ifodasini topgan.



1-rasm. Norasmiy og'zaki nutqdan rasmiy yozma nutqqacha.

Bu rasmda (1-rasm) ingliz tilining uslubiy darajalari ko'rsatilgan bo'lib, u norasmiy og'zaki nutqdan (chap tarafda) rasmiy yozma ingliz tiligacha (o'ng tarafda) uzluksiz o'zgarish yo'nalishi ifodalangan.

Casual conversation: cosy chat with a close friend – yaqin do'st bilan oddiy va qulay suhbat, norasmiy, so'zlashuv uslubida.

E-mail to a friend – do'stga yuborilgan elektron pochta. Yozma bo'lsa-da, norasmiy tilda yoziladi.

Letter to an acquaintance – tanishga yozilgan xat. Bu biroz ehtiyotkorlik bilan yozilgan, rasmiyroq til talab etildi.

Conversation with manager at work – ishdagi boshliq bilan suhbat. Og'zaki bo'lsa-da, rasmiylik va hurmat saqlanadi.

Job interview – ish suhbatida qatnashish. Juda ehtiyotkor va rasmiy nutq ishlatiladi.

Public speech – ommaviy nutq. Og'zaki bo'lsa-da, rasmiy va yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

Written academic article – ilmiy maqola. Eng rasmiy va murakkab yozma uslubda yoziladi.

Bu diagramma ingliz tilining har xil holatlar uchun – qanday uslubiy moslashuv talab qilinishini ko'rsatadi. Har bir holatda tilning rasmiyligi va murakkabligi farq qiladi, shuning uchun kimga va qaysi vaziyatda so'zlayotganimiz va yozayotganimiz juda muhim.

Tilshunoslikda *rasmiylik uzluksizligi* degan tushuncha mavjud bo'lib, u turli til shakllarini bir chiziqli spektrda tasniflashga yordam beradi. Bu yondashuvga ko'ra, matn va nutq turlari mutlaq qarama-qarshilik asosida emas, balki rivojlanganlik darajasi, rejalashtirilganlik, tahrirlanganlik, mavhumlik va rasmiylik mezonlari asosida bir-biriga yaqin yoki uzoq bo'lgan uzluksiz ko'rinishdagi pog'onalarda joylashadi. Spektrning eng rasmiy chekkasida oldindan rejalashtirilgan, bir necha marotaba tahrir qilingan, grammatik va leksik jihatdan eng yuqori darajadagi, kontekstdan nisbatan mustaqil bo'lgan ilmiy maqolalar, huquqiy hujjatlar, resmi bayonotlar kabi yozma matnlar joylashadi. Bunday matnlar ko'pincha o'quvchining ishtirokisiz, monologik shaklda tuziladi va maksimal aniqlik, barqaror tuzilishga intiladi. Uzluksizlikning qarama-qarshi, eng norasmiy uchida esa, teskari ravishda, rejasiz, tabiiy ravishda yuzaga keluvchi og'zaki muloqotlar joylashadi. Bunday muloqotlarda ishtirokchilar navbat bilan so'zlashadi, mavzular tez-tez o'zgaradi, nutq bir-birining ustiga tushadi, pauzalar va takrorlar tez-tez uchraydi. Bu shakl, odatda, "erkin suhbat" (casual conversation) deb nomlanadi. U ko'pincha do'stlar, tanishlar yoki oila a'zolar o'rtasidagi norasmiy muomala jarayonida kuzatiladi. Mazkur chizma o'rtasida esa norasmiy yozma matnlar (masalan, do'stlarga yozilgan maktublar, ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar, elektron pochta orqali norasmiy muloqot) hamda rasmiy og'zaki muloqot shakllari (masalan, xizmat ko'rsatish jarayonidagi suhbatlar, ish suhbatlari, ommaviy nutqlar, rasmiy intervyular) joylashadi. Ular og'zaki yoki yozma bo'lishiga qaramasdan, qisman rejalashtirilgan, biroq hanuz real vaqt rejimida kechadigan yoki kontekstdan kuchli bog'liqlikka ega bo'lgan kommunikativ shakllardir. Mazkur yondashuv tilshunoslarga ham, til o'rganuvchilarga ham turli matn turlarini mukammal tahlil qilish, ularning stilistik va funksional xususiyatlarini baholashda muhim metodologik asos yaratadi. Bu uzluksizlik tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlarini yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Ilmiy matnlar odatda bevosita ishtirokni chetlab o'tuvchi, rasmiy va obyektiv uslubda yaratiladi. Bu bevosita ishtirokdan chekinish bir nechta til vositalarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, ilmiy matnlarda shaxsni ifoda etuvchi olmoshlarning, xususan, men (I) va siz (you) kabi birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlarining ishlatilishi kam yoki umuman uchramaydi.

Shuningdek, passiv gap tuzilmalari ko'p qo'llanilib, fikrlarning muallifdan mustaqil ekanligi ta'kidlanadi. Ilmiy matnning lug'ati hissiy yoki emotsional ifodalardan holi bo'lib, neytral, faktik va aniq bo'lishga intiladi⁷. Bunga qarama-qarshi tarzda, norasmiy og'zaki muloqot, masalan, do'stlar o'rtasida kofe ichish jarayonida o'tkaziladigan suhbatda shaxsiy ishtirok ancha yuqori darajada bo'ladi. Bunday muloqotda I (men) va you (sen/siz) kabi shaxsiy olmoshlar faol qo'llaniladi, bu ishtirokchilarning bevosita o'zaro munosabatini va muloqotdagi sub'ektivlikni aks ettiradi. Bundan tashqari, hissiy ifodani bildiruvchi birliklar keng ishlatiladi, bu esa suhbatni yanada jonli va samimiy qiladi⁸. Shuni ta'kidlash zarurki, ushbu taqqoslashlar odatda umumiy tendensiyalarni ifodalaydi va barcha holatlarga to'g'ri kelmasligi mumkin. Diskurs shakllari kontekst va ishtirokchilarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab o'zgaruvchanlik ko'rsatadi. Masalan, begonalar orasidagi suhbatlar ko'pincha norasmiy bo'lishiga qaramay, shaxsiy jihatdan masofali va rasmiy bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda suhbat mavzusi odatda neytral: iqlim, ob-havo yoki kundalik voqealar kabi mavzular bilan cheklanadi. Faqatgina so'z boyligi emas, balki so'zlarning mazmuniy yuklamasi jihatidan ham og'zaki va yozma nutq bir-biridan farq qiladi.

Og'zaki muloqot, asosan, ikki asosiy turga bo'linadi: shaxslararo (interpersonal) va amaliy (pragmatik) ehtiyojlar asosida shakllanadi. Shaxslararo (interpersonal) muloqot ijtimoiy aloqalarni saqlash, mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy rol o'zaro ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muloqotning asosiy maqsadi ishtirokchilar o'rtasida ijobiy munosabatlarni saqlash va ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlashdir⁹. Misol tariqasida do'stlar o'rtasidagi norasmiy suhbatlarni keltirish mumkin. Amaliy (pragmatik) muloqot esa aniq ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda axborot almashinuvi, xizmat ko'rsatish, muammo yechish kabi vazifalar ustuvor hisoblanadi¹⁰. Masalan, shifokorga sog'liq muammolari haqida xabar berish yoki xizmat ko'rsatishda so'rov bildirish amaliy muloqotga misol bo'la oladi. Shu tariqa, og'zaki muloqot doimo shu ikki turdagi ehtiyojlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ba'zan bu ehtiyojlar bir-birini to'ldiradi, ba'zida esa ustunlik qilishi mumkin. Til va nutq tahlilida ushbu ehtiyojlarning rolini aniqlash muloqotning samaradorligini va kontekstini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Nutq tahlili sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki va yozma nutqning har ikkisi ham murakkab va izchil tuzilmalarga ega bo'lib, ularni tavsiflash va tahlil qilish mumkin. Ushbu tuzilmalar nutq va yozuvning madaniyatimizdagi turli vazifalarini aks ettiradi hamda ularning lingvistik ma'nolarni ifodalashdagi o'ziga xosliklarini ifodalaydi. M.Halliday bu borada shunday fikr bildiradi:¹¹ *"So'zlash va yozish – bu fikrning ikki xil yo'lidir. Ular lingvistik ma'nolarni ifodalashning ikki xil rejimidir"*. Bu fikr, tilning og'zaki va yozma shakllarini bir-biridan ajratib, ularning o'zaro munosabatini va alohida xususiyatlarini anglashga yordam beradi.

⁷ Halliday M. A. K. Spoken and Written Language. – Oxford: Oxford University Press, 1985. – 123 p.

⁸ Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

⁹ Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

¹⁰ Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

¹¹ Halliday, M. A. K. Spoken and Written Language. Oxford: Oxford University Press, 1985. — P 99.

Semantika va diskurs munosabati. Zamonaviy tilshunoslikda “diskurs” atamasi keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biriga aylangan bo'lib, uning semantikadagi talqini ayniqsa murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Diskurs semantikasi ma'lum bir intellektual faoliyat sohasida lug'aviy birliklarning qanday ishlatilishini tahlil qiluvchi yo'nalishdir. Bu yo'nalish tilshunoslikning an'anaviy semantika doirasidan chiqib, til birliklari bilan ularning kontekstual qo'llanilishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni chuqur o'rganadi. Diskurs semantikasi, xususan, gap va u mavjud bo'lgan kengroq kontekst o'rtasidagi semantik bog'liqlikni o'rganadi. Bunday bog'liqlikni ifodalovchi eng aniq misollardan biri sifatida olmoshlarning qo'llanilishini ko'rsatish mumkin. Olmoshlar mustaqil semantik yuklamaga ega bo'lmagan til birliklari sifatida, ular faqat kontekstual bog'lanish orqali to'laqonli tushuniladi. Masalan, “U so'zladi” gapidagi “u” olmoshi faqat oldingi yoki keyingi kontekstdagi shaxsga nisbatan anglash mumkin bo'ladi.

Zamonaviy lingvistik yondashuvlar nuqtayi nazaridan, diskurs faqat matn emas, balki matndan tashqari turli lingvistik va ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida qaraladi. Diskursni to'laqonli tushunish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: kommunikatorlarning fikrlari va motivlari, dunyo haqidagi umumiy bilimlar, qabul qiluvchining maqsadi va munosabati, nutq vaziyati va madaniy kontekst.

Bu yondashuv diskursni shunchaki grammatik va leksik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy va ma'naviy aloqalarni amalga oshiruvchi faol jarayon sifatida baholaydi.

Amaliy tilshunoslik fani hisoblangan Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Uning asosiy e'tibori insonlarning tildan foydalanish usullaridagi o'zgarishlar hamda tilning o'zgarishidir. Bu sohadagi tadqiqotchilar til orqali insonlar qanday qilib ijtimoiy tuzilmalarni yaratishlari va saqlab qolishlariga qiziqishadi. Shuningdek, tilning shaxsning identitetini yaratish va saqlashdagi o'rni ham o'rganiladi. Kim qanday tilda gapiradi, uning lahjasi qanday, insonlar turli ijtimoiy vaziyatlarda va turli insonlar bilan gaplashganda lahjasini (yoki hatto tilini) qanday o'zgartiradi – bularning barchasi sotsiolingvistlarning diqqat markazida. Sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy natijalardan biri shuki, lahja, dialekt va jins kabi o'zgaruvchilar ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, sotsiolingvistlar ko'rsatdiki, ma'lum bir hududiy lahjaga ega bo'lgan so'zlovchilar, ko'proq nufuzga ega bo'lgan dialekt vakillariga nisbatan ish suhbatlarida kamroq muvaffaqiyat qozonadi. Shuningdek, jins va til bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, qizlar va o'g'il bolalar juda erta yoshdan boshlab o'z jins identitetlariga mos keladigan “to'g'ri” usullarda gapirishga ijtimoiylashtiriladi va agar ular bu noaniq til chegaralarini buzsa, turli shakllarda jazolanadi.

Shu kabi kuzatuvlarni boshlang'ich nuqta qilib olgan tanqidiy diskurs tahlili til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilishda aniq siyosiy pozitsiyani qabul qilgan amaliy lingvistik tadqiqotlarning o'ziga xos tarmog'iga aylangan. Tanqidiy diskurs tahlili mutaxassislari uchun ijtimoiy tengsizlikning til bilan bog'liq omillarini faqat tavsiflash yoki aniqlash yetarli emas; aksincha, yo'nalishning maqsadi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ilgari surishdir. Buni odatda lingvistik tahlilni sotsiologiya va madaniyatshunoslik nazariyalaridan olingan tushunchalar bilan birlashtirish orqali amalga oshiradi.



Ushbu tadqiqot og'zaki va yozma nutq shakllarining lingvistik va kommunikativ jihatlari hamda ularning o'zaro farqlari va o'xshashliklarini aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, og'zaki nutq o'zining kontekstga bog'liqligi, rejalashtirilmaganligi va interfaol xarakteri bilan ajralib turadi, yozma nutq esa aniq strukturaga ega bo'lib, izchillik va tahrirlanganlikni talab qiladi. Og'zaki va yozma diskurslar bir-birini to'ldiruvchi va o'ziga xos kommunikativ vazifalarni bajaruvchi shakllar sifatida til amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, og'zaki nutq haqidagi mavjud stereotiplar ilmiy tahlil asosida qayta ko'rib chiqilishi lozimligi ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, pragmatika va munoloq nazariyasi sohalarida kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beattie G. Talk: An analysis of speech and non-verbal behaviour in conversation. – Milton Keynes: Open University Press, 1983. – P 33.
2. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
3. Eggins S., Slade D. Analysing Casual Conversation. – London: Cassell, 1997. – 344 p.
4. Halliday M. A. K. Spoken and Written Language. – Oxford: Oxford University Press, 1985. – 123 p.
5. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1985. – 388 p.
6. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
7. McCarthy M. Spoken Language and Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 220 p.